

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **TERAPIYA** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

## **1. Test variantining qo'llanish maqsadi**

Terapiya fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuniga va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti "Oliy o'quv yurtlaridan keying o'qishni takomillashtirish" tizimi ga asosan oliy ta'lim muassasalariga klinik ordinaturaga kirish test sinovlarida ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda terapiya faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida bakalavrlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

## **2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom";

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;

Terapiya mutaxassislik bo'yicha o'qitishga oid amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari.

## **3. Terapiya fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi**

Terapiya fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti bakalavrlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

#### 4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi
1.1	<p style="text-align: center;"><b><i>Ichki kasalliklar fan sifatida</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Ichki kasalliklar faninig maqsad va vazifalari. terapiya tarixi, fan va amaliyotning zamonaviy holati, kelajak yo‘nalishlari. Terapevtik olimlarning ichki kasalliklar rivojiga qo‘shgan hissalari.</li> </ul>
1.2	<p style="text-align: center;"><b><i>O‘zbekiston Respublikasidagi terapevtik yordamning holati</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ terapevtik xizmatning tarkibiy tuzilmasi va faoliyatlari, aholiga ambulator va statsionar tartibdagi terapevtik yordamni tashkillashtirish, terapevt faoliyatiga doir tibbiy hujjatlar.</li> </ul>
1.3	<p style="text-align: center;"><b><i>Tibbiy etika va deontologiya asoslari</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ vrach, bemor, o‘rta va kichik tibbiyot xodimi o‘rtasidagi munosabatlarning asosi ; amaliyotda tibbiy deontologiya talablari haqida tasavvur</li> </ul>
1.4	<p style="text-align: center;"><b><i>Ichki a‘zolar klinik anatomiyasi, fiziologiyasi. Ichki a‘zolar faoliyatlari va tekshirish usullari.</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Ichki a‘zolar funktsional faoliyati. Qariyalardagi xususiyatlari.</li> <li>✓ Ichki a‘zolar kasalliklarida laborator tekshirish usullari</li> <li>✓ Ichki a‘zolar kasalliklarida instrumental tekshirish usullari</li> <li>✓ Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi asoslari. Terapiyada xalq tabobati usullaridan foydalanish mezonlari.</li> </ul>
1.5	<p style="text-align: center;"><b><i>Nafas a‘zolari kasalliklari.</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Surunkali o‘pka obstruktiv kasalliklari. Tashxislash. Differentsial tashxis. Terapiyaning zamonaviy mezonlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya</li> <li>✓ Pnevmoniyalar. Tasnifi. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya</li> <li>✓ O‘pkaning yiringli kasalliklari. O‘pka bronxoektatik kasalligi. Tasnifi Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya</li> <li>✓ O‘pkaning interstitsial kasalliklari. Fibrozlovchi alveolit. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash. Profilaktikasi</li> <li>✓ O‘pkaning dissimenirlangan kasalliklari turlari: Tashxislash. Differentsial tashxis va davolash.</li> <li>✓ Plevritlar. Tasnifi. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash va . Profilaktikasi.</li> <li>✓ O‘tkir va surunkali nafas yetishmovchiligi. Tasnifi. Tashxislash. Klinikasi. Davolash. Profilaktikasi.</li> <li>✓ O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi.</li> <li>✓ O‘pka gipertenziyasi. Cor-pulmonale. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash. Profilaktikasi.</li> </ul>
1.6	<p style="text-align: center;"><b><i>Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Ateroskleroz. Patogenez. Tashxislash. Profilaktikasi.</li> <li>✓ Yurak ishemik kasalligi. Tasnifi. Zo‘riqish stenokardiyasi. Nostabil stenokardiya. Tashxisi. Xalqaro davolash standartlari. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Miokard infarkti. Tashxisi. Xalqaro davolash standartlari. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Gipertoniya kasalligi. Tashxislash. Differentsial tashxis. Gipertonik kriz: turlari, tashxislash, shoshilinch yordam ko'rsatish Xalqaro davolash standartlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Simptomatik arterial gipertenziya. Tashxislash. Differentsial tashxis. Xalqaro davolash standartlari. Profilaktikasi.</li> <li>✓ Yurak ritmining buzilishlari: klinik va elektrokardiografiyada tashxislash, differentsirlangan terapiya, prognozlash. Profilaktikasi.</li> <li>✓ Miokarditlar. Tasnifi. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash standartlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Perikarditlar. Tasnifi. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash standartlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Infektsion endokardit. Tasnifi. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash standartlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Nospetsifik aortaarteriit. Tashxislash. Differentsial tashxis. Davolash standartlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Kardiomiopatiyalar. Tasnifi. Tashxislash. Diagnostika. Qiyosiy tashxislash. Davolash. Profilaktikasi.</li> <li>✓ O'tkir yurak yetishmovchiligi. Patofiziologiyasi. Tasnifi. Klinikasi. Xalqaro davolash standartlari.</li> <li>✓ Surunkali yurak yetishmovchiligi. Patofiziologiyasi. Tasnifi. Klinikasi. Xalqaro davolash standartlari. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Surunkali yurak revmatik kasalligi. Yurakning ortirilgan nuqsonlari. Yurakning mitral va aortal nuqsonlari. Klinikasi. Patofiziologiyasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Yurakning tug'ma nuqsonlari. Tasnifi. Aortaning koarktatsiyasi. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> </ul>
1.7	<p style="text-align: center;"><b><i>Revmatologik kasalliklar</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Revmatoid artrit. Etiologiya va patogenezi. Tasnifi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Seronegativ spondiloartritlar. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Infektsion artritlar. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Mikrokristall artritlar. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Osteoartroz. Tasnifi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi.</li> <li>✓ Bo'g'inning degenerativ i metabolik kasalliklari. Tasnifi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ O'tkir revmatik isitma. Etiologiyasi, patogenezi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Biriktiruvchi to'qima kasalliklari. Etiologiyasi, patogenezi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Tizimli qizil yuguruk. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Tizimli sklerodermiya. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Dermatomiozit. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Shegren sindromi. Klinikasi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Tizimli vaskulitlar. Klassifikatsiyasi. Etiologiyasi, patogenezi. Klinikasi. Tashxislash. Differentsial tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> </ul>
1.8	<p style="text-align: center;"><b><i>Buyrak kasalliklari</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ O‘tkir pielonefritlar. Kasallikning patofiziologiyasi va patanatomiyasi. Tashxislash. Tasnifi. Davolash.</li> <li>✓ Surunkali pielonefritlar. Kasallikning patofiziologiyasi va patanatomiyasi. Tashxislash. Tasnifi. Davolash.</li> <li>✓ O‘tkir glomerulonefritlar. Kasallikning patofiziologiyasi va patanatomiyasi. Tashxislash. Tasnifi. Davolash.</li> <li>✓ Surunkali glomerulonefritlar. Kasallikning patofiziologiyasi va patanatomiyasi. Tashxislash. Tasnifi. Davolash</li> <li>✓ O‘tkir va surunkali tubulointerstitsial nefritlar. Kasallikning patofiziologiyasi va patanatomiyasi. Tashxislash. Tasnifi. Davolash.</li> <li>✓ Nefrotik sindrom. Buyrak amiloidozi. Tashxislash. Tasnifi. Davolash.</li> <li>✓ Moddalar almashinuvi buzilganda (qandli diabet, podagra, amiloidoz, mielom kasalligi) glomerulyar apparatning zararlanishi</li> <li>✓ Kollagenozlarda (tizimli qizil yuguruk, tizimli sklerodermiya) glomerulyar apparatning zararlanishi</li> <li>✓ Surunkali buyrak kasalligi. Kasallikning patofiziologiyasi va patanatomiyasi. Tasnifi. Tashxislash. Davolash.</li> <li>✓ O‘tkir buyrak yetishmovchiligi. Tasnifi. Tashxislash. Davolash.</li> </ul>
1.9	<p style="text-align: center;"><b><i>Hazm qilish a’zolari kasalliklari</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Qizilo‘ngach kasalliklari. Tasnifi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Gastritlar. Tasnifi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalliklari. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Gastroezofageal reflyuks kasalligi. Tashxislash. Davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Pankreatitlar. Tasnifi. Tashxislash. Davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Ichak yallig‘lanish kasalliklari. Tasnifi. Nospetsifik yarali kolit. Kron kasalligi. Tashxislash. Davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Ichak ta’sirlanish sindromi. Tashxislash, Differentsial tashxislash. Davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ O‘tkir va surunkali gepatitlar. Klassifikatsiyasi. Tashxislash, differentsial tashxislash, davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Surunkali virusli gepatitlar. Tashxislash, Differentsial tashxislash, davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Jigar tsirrozi. Klassifikatsiyasi. Tashxislash, Differentsial tashxislash. Jigar tsirrozini davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Jigar noalkogol yog‘ kasalligi. Tashxislash. Davolash. Profilaktikasi. Profilaktika. Reabilitatsiya.</li> <li>✓ Xolestatik sindrom. Tashxislash, Differentsial tashxislash. Profilaktika.</li> </ul>

	<p>Reabilitatsiya.</p> <p>✓ O‘t yo‘llari kasalliklari. Tashxislash. Davolash. Profilaktika. Reabilitatsiya.</p>
1.10	<p><b><i>Dietologiya</i></b></p> <p>✓ Davolash profilaktika muassasalarida davolovchi ovqatlanishni tashkil etish. Pandemiya xolatida dietolog xizmati va maslaxatini tashkil etish</p> <p>✓ Ichki kasalliklarda taklif etilgan parhez taomnomalar (Pevzner diet stollari, yengillatuvchi, Shelton parhezlari)</p> <p>✓ Keksalik va nuroniy yoshidagi insonlar ovqatlanishini tashkil qilish printsiplari. Gerontologiyaning alimentar muammolari</p>
1.11	<p><b><i>Terapevtik kasalliklarda mehnatga yaroqsizlik</i></b></p> <p>✓ Terapevtik kasalliklarda mehnatga yaroqsizlik. Sababini aniqlash, nogironlik guruhlarini belgilash. Nogironlik klassifikatsiyasi.</p> <p>✓ Simulyatsiya va agravatsiya, ularni aniqlash usullari.</p> <p>✓ Ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya. Harbiy-tibbiy ekspertiza</p>
1.12	<p><b><i>Terapiyada komorbid holatlar.</i></b></p> <p>✓ Terapevtik kasalliklarda komorbid holatlarning uchrashi. Kasallik kechish xususiyatlari.</p> <p>✓ Yuraq-qon tomir kasalliklari va o‘pka kasalliklari komorbid uchrashi, kechish xususiyatlari. Tashxislash. Davolash.</p> <p>✓ Yuraq-qon tomir kasalliklari, revmatologik kasalliklar va buyrak kasalliklarining komorbid kechishi.</p> <p>✓ Terapevtik kasalliklarni qandli dibet bilan komorbid kechishi.</p> <p>✓ COVID 19 va terapevtik kasalliklarni komorbid kechishi.</p> <p>✓ Homiladorlikda ekstragenital patologiya holatlari. Tashxislash. Davolash</p>
1.13	<p><b><i>Shoshilinch terapiya.</i></b></p> <p>✓ Terapevtik kasalliklarda shoshilinch davolash asoslari.</p> <p>✓ O‘pka kasalliklarida shoshilinch terapevtik yordam.</p> <p>✓ Yurak qon tomir kasalliklarida shoshilinch terapevtik yordam.</p> <p>✓ Revmatologik kasalliklarida shoshilinch terapevtik yordam.</p> <p>✓ Hazm tizimi kasalliklarida shoshilinch terapevtik yordam.</p> <p>✓ Jigar va o‘t yo‘li kasalliklarida shoshilinch terapevtik yordam.</p> <p>✓ Buyrak kasalliklarida shoshilinch terapevtik yordam</p> <p>✓ Komalar. Tasnifi. Tashxislash. Shoshilinch terapevtik yordam.</p> <p>✓ Allergik jarayonlarda shoshilinch terapevtik yordam.</p>

## 5. Ichki kasalliklar faniga oid kognitiv ko‘nikma darajasi

1.	Quyi kognitiv daraja	– terapevtik klinik atamalar, terapevtik kasalliklar etiologiyasi va patogenezini haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish, terapevtik kasalliklarning klinik belgilari, tasnifini bilish, davolash tamoyillarni tushunish.
2.	Yuqori kognitiv daraja	– terapevtik kasalliklarni differentsial diagnostik tahlil qilish; – fanga oid turli qiyinlik darajadagi masalalarni yecha olish; – terapevtik kasalliklarning zamonaviy davolash chora tadbirlari haqidagi bilimlarni namoyon eta olish.

## 6. Ichki kasalliklar fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Ichki kasalliklar faniga oid test varianti tibbiyot bilim yurtlarining bakalavr bosqichini tugatib, klinik ordinaturaga kiruvchi talabalarning ichki kasalliklar va terapiyaga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta’lim standartlari, Terapiya mutaxassisligi bo‘yicha klinik ordinator (rezident)ni tayyorlash O‘quv modul dasturida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi	
Terapiya	Terapevtik obyektlar va ularda boradigan jarayonlarni tushunish kompetensiyasi	Ichki kasalliklar fan sifatida	–Ichki kasalliklar fanlar sistemasini, fanning ilmiy tadqiqot metodlarini,, terapiya fanining rivojlanish tarixi va olimlarning fan rivojiga qo‘shgan hissalarini bilish. Terapiyada profilaktika va tibbiy reabilitatsiya asoslarini bilish	1.1.1
		Ichki kasalliklar fan sifatida	–sog‘liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohatlar haqida; –tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo‘nalishlari, terapevtik kasalliklar diagnostikasi va davolashda yangi texnologiyalari haqida; –O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash organlarining terapevtik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar to‘g‘risida bilish;terapevtik xizmatning tarkibiy tuzilmasini va faoliyatlari haqida; –O‘zbekiston Respublikasida terapiya sohasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va so‘nggi yutuqlari, dolzarb muammolari haqida –ambulator, statsionar terapevtik muassasalar va ularning bo‘limlarini boshqarish haqida <b><i>bilish;</i></b>	1.1.2
		Tibbiy deontologiya	–tibbiy etika va deontologiya asoslari haqida; –vrach, bemor, o‘rta va kichik tibbiyot xodimi o‘rtasidagi munosabatlarning asosi haqida; –amaliyotda tibbiy deontologiya talablari haqida <b><i>tasavvurga ega bo‘lishi;</i></b>	1.1.3
		Aholi bilan ishlashda terapevtik faoliyatni tashkillashtirish	–terapevtik bemorlarni yuqori malakali so‘rabsurishtirish, terapevtik bemorlarga zarur davolashdiagnostik tadbirlar hajmi va to‘plamini aniqlash; –terapevtik kasalliklarning epidemiologiyasi	1.1.4

			<p>va kasalliklarning xavf omillari, rivojlanishining zamonaviy nazariyalari va tasniflari haqida;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tibbiy demografiya, tushuncha, asosiy bo‘limlari haqida;</li> <li>-terapiyada zamonaviy tashxislash usullari va davolashning yangi texnologiyalari, asoratlarini davolash hamda dispenserizatsiya, reabilitatsiya, profilaktika choratadbirlari haqida;</li> <li>-tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri olib borish qoidalari haqida;</li> <li>-qidiruv va sud organlari uchun kerakli ashyoviy dalillar va boshqa manbalarni o‘rganish, tirik shaxslar va murdalarga guvohlik berish haqida;</li> <li>-mehnat va harbiy ekspertiza o‘tkazish haqida;</li> <li>-ichki a‘zolar kasalliklarida fizioterapevtik muolajalarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘llash haqida bilishi</li> <li>-terapevtik klinikalarda maxsus tekshiruvlar va shoshilinch holatlarda yordamni amalga oshirish;</li> <li>-terapevtik bemorlarga reabilitatsion tadbirlarni ishlab chiqish va o‘tkazish, tibbiy hujjatlarni yuritish;</li> <li>-terapevtik bemorlarga dispanserizatsiya, reabilitatsiya va profilaktikani amalga oshirish;</li> <li>- aholiga va terapevtik bemorlarga sog‘lom turmush tarzini keng va maqsadli targ‘ibot qilish;</li> <li>- ichki a‘zo kasalliklarini samarali davolash, reabilitatsiya qilishda xalq tabobati bilimlaridan foydalanish;</li> <li>- COVID 19 va ichki kasalliklar bilan komorbid holatlarda samarali davolash, reabilitatsiya qilish;</li> <li>-yuqumli bo‘lmagan va shuningdek yuqumli bo‘lgan kasalliklar, epidemiya, pandemiya vaqtida terapevtik yordamni ko‘rsatish qoidalari haqida <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi;</i></b></li> </ul>	
--	--	--	---	--

	Terapevtik kasalliklarsa boradigan jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni xulosa qilish kompetensiyasi	Aholi bilan ishlashda tibbiy ko'rsatkichlar tahlili	–aholi salomatligi: mezonlar va ko'rsatkichlari. Aholi va uning alohida guruhlarining sog'lig'ini o'rganish sxemasi. Aholi salomatligi darajasini belgilovchi eng muhim omillar va shartlar haqida; –aholiga tibbiyprofilaktika yordamini tibbiy xizmatning asosiy turi sifatida ko'rsata olish haqida; –profilaktika yordami faoliyatini tahlil qilish va sifatini baholash haqida; –nogironlik (vaqtinchalik, doimiy)ni tekshirish. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlikni aniqlash, mehnatga layoqatsizlikni tasdiqlovchi asosiy hujjatlar haqida bilish; –maxsus tadqiqot usullaridan olingan ma'lumotlarni sharhlash (laboratoriya, neyrofiziologik, neyrovizual, biokimyoviy) haqida; –dori vositalarining farmakokinetikasi va farmakodinamikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni bilish va tushunish.	1.1.5
	Kognitiv kompetensiya	Mantiqiy fikrlashga asoslangan masala va topshiriqlarni bajarish	–terapevtik hodisa, jarayon, nazariya va qonuniyatlar hamda tushunchalar bo'yicha mantiqiy fikrlashga asoslangan masalalar, grafik va rasmi topshiriqlarni bajara olish.	5.1.1

## 7. Foydalanishlgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gadayev A.G. Ichki kasalliklar. Darslik. -Toshkent. Turon Zamin Ziyo nashriyoti. 2018-y.
2. Karimov Sh.I., Teshayev O.R., Gadayev A.G., Nurillayeva N.M. Oilaviy tibbiyot asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent. O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017-y.
3. Nazarov O.A., Nazarov J.A., Nizamov K-F- Klinik allergologiya. Darslik. -Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2016-y.
4. Gadayev A. G., Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Darslik. -Toshkent. Muxarrir nashriyoti. 2012-y.
5. Maxmudova Sh.K. Kasb kasalliklari. Darslik. – Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2011-y.
6. Gadayev A.G., Axmedov X.S. Umumiy amaliyot vrachlari uchun amaliy ko'nikmalar to'plami. O'quv qo'llanma. -Toshkent. Muxarrir nashriyoti. 2010-y.
7. Xaitov P.M. Клиническая аллергология Учебник. - Moskva. "GEOTAR media" 2009 y.
8. Nazarov O.A., Yuldasheva F.U. Allergologiya. Darslik. - Toshkent. «FAN» 2001-y.

**\*Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.



